

# **Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarga natyurmort kompozitsiyasini ishlashni o'rgatish**

***Pardayev Baxtiyor Abdujabborovich***

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston*

*e-mail:pardayevbaxtiyor89@gmail.com*

***Annotatsiya.**Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Tasvirlovchi narsalar to'plamiga (natyurmort) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u ko'z qarashiga qat'iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:** Natryumort, kompozitsiya, geometrik jismlar, yorug'-soya, o'lcham, nisbat.*

\*\*\*

***Annotation.**The painting is based on a perfect pencil drawing. Therefore, before moving on to the process of painting, let's briefly dwell on the features of depicting the composition of a still life pencil in the plane of the image. The descriptor looks at a set of objects (still life) from a certain point of view, and it is manifested by the interdependence of the laws of the perspective of observation, strictly in sight.*

***Key words:** Still life, composition, geometric objects, light-shadow, size, proportion.*

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Tasvirlovchi narsalar to'plamiga (natyurmort) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u ko'z qarashiga qat'iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilganligi va bir-biriga bog'langan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarim soyalar, soyalar va yorug'liklar taqsimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo ko'rish nuqtasi o'zgartirilsa naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ko'rish nuqtasi yorug'likka qarama-qarshi bo'lganda tasvirni siluet tarzida ko'rish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida to'plamdagi barcha narsalar, ularning o'zaro joylashuvi, soya-yorug' va tus munosabatlarini obrazli ko'rinishiga bo'ysundiriladi va idrok qilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varog'i yoki mato qanday o'lchamda bo'lishligini

aniqlash zarur. Qog`oz varog`ida ifodalanadigan natyurmort qo`yilmasini naturadan to`g`ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog`oz varog`i tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat`iy rioya qilish samarali natija garovidir.

Natyurmort kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog`oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog`oz o`lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo`yilmasi muayyan o`lchamdagi qog`ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma`lum o`lcham tekisligida «tiqilinch» yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog`oz tekisligida aniq ko`rinmaydi.

Tasvirda asosiy e`tiborni o`ziga jalb etuvchi buyum – kompozitsiya markazini, qolganlari esa unga tobe bo`lib xizmat qiladi.


Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo`naltirilgan bo`lishi kerak. O`lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o`lchamdagi qog`oz bo`lagida bo`ljak natura qo`yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so`ng, asosiy ishga o`tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo`yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan), keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo`lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni ishlash, so`ngra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan qo`yilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Natyurmort qo`yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so`ngra boshqalariga o`tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog`ozga to`g`ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo`l qo`ymaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to`plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o`ta muhim.

Rangtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, hajmini, buyumlarning konstruktiv qurilish kabi vazifalarni to`liq bajarishmaydi. Ularning diqqat e`tibori narsalarni kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo`ladi. Ularning fikricha narsaning sirtqi ko`rinishi chizilsa, shakl ham to`g`ri tasvirlanadi deb hisoblaydilar. Buyumning tashqi ko`rinishini tasvirlayotib, uning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o`zaro joylashuvi, istagan qirrasini yo`nalishi naturada osongina



Geometrik shakllardan tuzilgan natyurmort

aniqlanadi va naturaning yo`naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontalar (yotig`) chiziqlari yordamida tasvir qog`ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o`zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho`zilgan qo`lda vertikal, gorizontalar yoki burchak ostida ushlab qirralarning perspektiv yo`nalishini tekshirish mumkin.

Quyidagi tasvirda konusning asos qismini kubning yuqori tomonining

eniga bo`lgan nisbatini qalam bilan asosini chekka o`ng burchak yoniga qo`yib vertikal bo`yicha tekshirish mumkin. Naturada bu vertikal kubning qoraytirilgan tomonini o`rtasidan kesib o`tadi, qalamtasvirda esa bunday bo`lmasligi mumkin. Xatosini aniqlab uni darxol tuzatamiz. Agarda konusning chap tomonini davom ettirsak, u silindrning aylana asosiga zo`rg`a tegadi. Bu yerda ham qalamtasvir aytarli darajada aniq emas. Vazani yuqori qismi orqali gorizontalar chiziq o`tkazib uning balandligini konus bo`yiga nisbatan aniqlash mumkin. Yana silindrning ikki tomonini davom ettirsak, qayerga borib taqalishini tekshirib ko`rish mumkin. Naturada kubning oldingi qirrasini konusning markazi bilan ro`para kelmaydi, qalamtasvirda u aynan markazda bo`lib ko`rinishi ham mumkin. Shunday qilib yana bitta xatosini topamiz. Endi gorizontalar joylashgan qalamni naturadagi kubning asosiga keltiramiz va qanchalik silindr asosini pastida bu chiziq o`tishini kuzatamiz. Naturada ikkalasini asosi deyarli bitta gorizontalar chiziqda joylashgan. Buni qalamtasvirda tekshirib ko`ramiz.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib qurish hamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini ham va ularning o`zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to`plamini joylashtirishda ularning asoslarini qurish juda ham muhim. Har bir narsaning joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda «muallaq» bo`lishi yoki biri ikkinchisiga «o`yib» kirgandek ko`rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

Moybo`yoqli rangtasvir uchun matoda ko`mir yordamida yorug` va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarning hajmdor shakli yorug`-

soyalar bilan qurilsa-qalamtasvir aniq ko`rinadi. Tayyor bo`lgan tasvirni tashqi ko`rinishlari tush bilan chizib chiqib, ko`mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa bo`yash uchun zarur bo`lgan natyurmortning aniq ko`rinishi qoladi.

Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Endi o`quv natyurmortini amaliy bajarishga o`tamiz. Dastlab faqat tusli (grizayl texnikasidagi rangtasvir), keyin rangli (akvarel va moyli bo`yoqlarda) tasvirlash jarayoni bilan tanishamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimova B.Z. Naturmort tuzish va tasvirlash. Toshkent. O'qituvchi. 1984.
2. Boymetov B., Abdurasulov S. Chizmatasvir. Toshkent. G'.G'ulom-matbaa ijodiy uy. 2004.
3. Mirzaahmedov M.A. Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi. Toshkent. O'qituvchi, 1976.
4. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: Fan. 2004
5. Xudoyorova O. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan. T.: 1993.